Lichinkalar o'z rivojlanishida 3 bosqichni o'tadilar, 3 bosqich 2 davrga – oziqlanishi va g'umbakoldi davriga bo'ldi. G'umbakoldi davrida lichinka oziqlanishi to'xtab, g'umbak urashi uchun joy izlaydi. Joyni topgach, u harakatsiz bo'lib qirgan va chuvulchangsimon bochkasimon ko'rinishga o'tadi. Kon u tufayli, kutikulani tashlamas pupariy holda.

Pupariy dastlabki soatlarida lichinka kutikulasi rangini saqlaydi. Ko'pchilik turlarida u asta – sekin bilan qorayadi va bir necha soat keyn to'q jigarrang yoki qora bo'lib qoladi. Pupariy qattiqlanishi ham bo'ladi. Ayrim lichinkalar pilla o'raydi. Bu pilla ichida pupariy hamda lichinka va g'umbak rivojlanadi.

Voyaga yetgan pashsha hayotiy ilk soatlari. Pashshalarning g'umbakdan chiqishi qo'yidagicha bo'lib o'tadi. Shishgan peshona pufagi bosimi ostida pupariyni oldingi uchi ochiladi va hosil bo'ladigan teshik dastlab peshona pufagi, qon chivin yedi. Yangi yorqin, qorinchasi kalta, silindrik shaklda, qanotlari taxlangan. Tuproq yoki tashlandiq orasida g'umbakdan chiqqan pashsha oyog'ini kovlovchi harakati va peshona pufagini pulsasiyasi yordamida yer yuziga chiqadi. Pashshalar shu yo'l bilan 30–50 sm masofani bosib o'tadi.

Yuzaga chiqishi bilan pashshani qorni va qanotlari yeyiladi, kutikulasi qattiqlashadi va yakuniy ranga qoladi. Keyin pashshalarni harakatchan hayoti boshlanadi. Pashshani g'umbakdan to harakatchan hayot tarziga 1–2 soat u koladi. Pashshalarga qarshi kurashni samaradorligini oshirish uchun yosh pashshalari yugurayotgan yoki o'tirgan yuzalarga zaharli preparatlar bilan ishlov berish kerak. Yangi tug'ilgan pashshalar insektisidlarga ta'sirchan bo'ladi.

3.2. Sinantrop pashshalar sistematikasi

Tip Bo'g'imoyoqlilar – Arthropoda

Kenja tip Traxeyalilar – Tracheata

Sinf Hasharotlar – Insecta

Kenja sinf Oliy, ya'ni qanotli hasharotlar – Pterygota

To'liq o'zgarish bilan rivojlanadigan hasharotlar – Holometalola

Bosh turkum Mekopteroidlar – Megaloptera

Turkum Ikki qanotlilar yoki pashshalar – Diptera

Kenja turkum Kalta mo'ylovlilar – Brachycera

Oila Asl pashshalar – Muscidae

Tur Uy pashshasi – *Musca domestica*

Tur Kichkina uy pashshasi – *Fannia canicularis*

Tur Xonadon pashshasi - *Muscina stabulans* Flln.

Tur Vizildoq – *Stomoxys calcitrans* L.

Tur Bozor pashshasi – *Musca sorbens* Wd

Tur Qora rangli go'ng pashshasi – *Mesembrina meridiana* L.

Oila Yashil yoki ko'k rangli go'sht pashshalar – Calliphoridae

Tur Ko'k rangli go'sht pashshasi – *Caliphora vicina*

Tur Yashil rangli go'sht pashshasi – *Lucillia sericata*

Oila Kulrang go'sht pashshachalar – Sarcophagidae

Tur Kulrang go'sht pashshasi – *Barcaea haemorrhoidatis*

Oila Go'ng pashshalari – Scatophagidae

Oila Meva pashshalari yoki drozofillar - Drosophilidae.

3.2.1. Asl pashshalar – Muscidae oilasi

Bularning 4 mingdan ortiq turi ma'lum bo'lib, katta oilalardan biri hisoblanadi. Rangi kul rang – qoramtir yoki qora, kattaligi o'rtacha, peshonasida qilchalar xiyobonchasi bor. Mo'ylovlarining ikkinchi bo'g'imi ust tomonidan

uzunasiga choki bor. Lichinkalari o'simlikxo'r, saprofag, yirtqich va oz qismi vaqtincha yoki doimiy holda parazit hayot kechiradi. Yetuk pashshalar gul nektarlari, oqsil va turli tashlandiqlarda va chirindi moddalarda oziqlanadi. Qisman turlari qon so'rib oziqlanadi. Bir qancha turlari hovli-joylar yaqinida har xil tashlandiqlarda yashaydi.

1. **Uy pashshasi - *Musca domestica* L.** Yer yuzining xamma joylarda tarqalgan va doim bo'ladigan pashsha. Tanasining uzunligi 7-9 mm ga yetadi. Rangi kulrang, oyoqlari va mo'ylovi tukli. Hamma narsa bilan oziqlanadi. Haqiqatan, ular nihoyatda keng tarqalgan hasharotlardan hisoblanadi. Samarqand viloyati sharoitida eng keng tarqalgan tur hisoblanadi (dominant indeksi 19,54%). Bir mavsum davrida odamlar uylariga o'rtacha bo'lib 750 - 850 ekzemplyar pasha uchib kiradi.



3.4 - rasm. Uy pashshasi – *Musca domestica*

Tez ko'payadi. Urg'ochilari bir marta tuxum qo'yganda 70-120 tagacha oq rangli, uzunligi 1,2 mm tuxum quyadi. Umr davomida iqlim sharoitiga ko'ra uy pashshasi 600 tadan 2000 tagacha tuxum quyishi mumkin. Urg'ochi pashsha tuxumlarini tashlandiqlarda va chirindilarga boy bo'lgan joylarning 1-2 sm chuqurlikka quyadi. Bu joylarni tanlash sababi shunda ki bu yerda yuqori harorat va namlik doimiy saqlanadi. Tuxumlarning rivojlanishi 8 soatdan 50 soatgacha davom etadi. Lichinkalari chuvalchangsimon, uzunligi 13 mm gacha, oq rangda bo'lib, boshi va oyoqlari bo'lmaydi. 3-25 kundan va 3 marotaba tullashdan keyin, lichinkalari quruq va salqin joylarga o'rmalab ketadi va g'umbakka aylanib, pupariyni (lichinkalarning qattiq po'sti) hosil qiladi. G'umbak davri 3 kungacha davom etadi. Voyaga yetgan pashshalar odatda 2 haftadan bir oygacha, ayrim vaqtlarda ikki oygacha yashashi mumkin. G'umbakdan chiqishidan 36 soatdan keyin ular ko'payishga kirishadi. Uy pashshasi yilda 15 martagacha avlod beradi. Hammaxo'r. Ular xar xil yuqumli va invazion kasalliklar tarqalishida vositachi rolini o'ynaydi.



3.5 - Rasm. Uy pashshaning lichinkasi



3.6-rasm. Uy pashshasining pupariysi.

2) Kichkina uy pashshasi - *Fannia canicularis*. Tashqi ko'rinishda uy pashshasiga o'xshaydi, lekin ularning tanasi kichik va qorin qismining yon tomonlarida sariq rangli yirik dog'lar bor. Hamma joylarda tarqalgan. Tuxumlari va lichinkalari suyuq substratga rivojlanadi va ko'pchilik bo'lib 80%li nam joylarini egallaydi. Lichinkalari jigar rang, yassi. Urg'ochisi bir marta kuyganda 80 taga yaqin tuxumlarni substratga sochadi. Bu turdagi pashshalarning aktivligi asosan ertalab va kechkurun. Sonini maksimal bo'lishi – bahor va kuzgi oylarida. Kichik uy pashshasi ichak infeksiyalarning tarqalishiga rol uo'nali mumkin. Pashshaning lichinkalari tasodifiy ichak va siydik yo'llarning paraziti deb aniqlangan.



3.6-rasm. Kichkina uy pashshasi - *Fannia canicularis*

3) *Xonadon pashshasi* - *Muscina stabulans* Flln.

Keng tarqalgan tur. Ko'payish joyi asosan xojatxonalarda. Shundan tashqari, uy hayvonlarning najasida va oziqa chiqindaliga ham rivojlanadi. Umr davomida urg'ochi bir necha marotaba xar ko'yganda 120 tagacha mayda tuxum ko'yadi. Lichinkalari 3 bosqichida yirtqichga aylanadi va boshqa pashshalar lichinkalari, shu jumladan uy pashshasi lichinkalarini nobud qiladi. Yoz oylarida lichinkalarining rivojlanishi 7 kun davomida bo'ladi. G'umbaklanishi tuproqda bo'ladi. Bu tur juda sovuqsevar va nam joylarni tanlaydi. Pashshalarning maksimal soni bahor oylarida kuzatiladi. Tibbiyotdagi ahamiyati – ichak infeksiyalarning tarqatuvchisi. Lichinkalari odam organizmida parazitlik qilishi mumkin – yaralar va ichagida.



3.7 – rasm. Xonadon pashshasi - *Muscina stabulans*

4) Bozor pashshasi – *Musca sorbens* Wd. O'rta Osiyo, Kavkaz va janubiy Qozog'istonda uchraydi. Ko'payadi faqatgina yerda, ochiq joylarda bo'lgan odamlar najasida. Lichinkalarning rivojlanishi 2 kundan 6 kunchaga bo'ladi. G'umbak davri 4-5 kun. Umr davomida urg'ochisi 3-4 avlod, o'rtacha 30 tadan tuxum ko'yadi. Tuxum quyishi uchun harorat 19° past bo'lmasligi zarur. O'rta Osiyoda bu turdagi pashshalar may oyning o'rtalarida iyulgacha va avgust oxiri oktyabrgacha uchraydi, dekabr oyigacha yo'q bo'lib ketadi. Yoz oylarida harorat $+30^{\circ}$ oshsa, pashshalar soni kamayadi. Bozor pashshasi asosan ochiq joylar (bozorlar) ba'zan xona ichiga ham uchib kirishi mumkin. Odamlarning ko'zlarini va yaralarini yalab ko'z kasalliklarning tarqalishiga sababchi bo'ladi. Bu turdagi pashshalar meva shiralari, go'sht, ayniqcha chiriyotgan sut mahsulotlari bilan oziqlanadi. Ichak infeksiyalarni qo'zg'atuvchilarining tarkalishigi ishtirok etishi mumkin.



3.8-rasm. Bozor pashshasi – *Musca sorbens* Wd

5) Vizildoq – *Stomoxys calcitrans* L. Tanasining uzunligi 5,5-7 mm. Bu pashsha tashqi ko'rinishdan uy pashshasiga o'xshaydi, lekin, xartumchasi uzun va, ko'pincha, yarim qorong'u joylarda qo'nib turishni xush ko'radigan va kam uchadigan bo'ladi. Ko'payish joylari asosan molxonalar. Tuxum va lichinkalari harort $+30-35^{\circ}$ dan yuqori bo'lmasa rivojlanadi. Urg'ochisi umr davomida bir necha avlod, har bir avlodida o'rtacha 100 gacha tuxum ko'yadi.. issiq iqlim xududlarida yil buyi ko'payadi. Sovuq qish oylarida ham, agar molxonalarda harorat 10° past bo'lmasa ko'payaveradi. Sonini maksimal bo'lishi sernam kuz mavsumida kuzatiladi. Bular, ko'pincha, qoramollarni chaqib, qonini so'radi. Shuningdek, ot, cho'chqalarni, shuningdek, odamni ham bezovta qiladi. Bu pashsha kuzda ko'payib ketadi va har xil yuqumli kasalliklarning, xususan, Sibir kuydirgisining yuqishida vositachi rolini o'ynaydi. Hamma joylarda uchraydi.



3.9-rasm. Vizildoq – *Stomoxys calcitrans* L.

3.2.2. Yashil yoki ko'k rangli go'sht pashshalar – *Calliphoridae* oilasi

6) *Ko'k rangli go'sht pashshasi* – *Calliphora vicina*. Tanasining uzunligi 8-13 mm, qorin qismi ko'k rangli va metallsimon yaltiraydi. Bog'larda, bozorlarda va iflos tashlandiqlar to'plangan joylarda uchraydi. Lichinkalari o'limtiklar va go'sht chiqindilarda rivojlanadi. Urg'ochisi 200 tagacha tuxum ko'yadi. Tuxumlarni 10-12^o, uchishi va oziqlanishi – 9-10^o va faolligi – 14^o haroratida kuzatiladi. Issiq iqlim sharoitida qishda ham faol, uchish faolligi – ertalab va kechqurun. Voyega yetgan davridagi oziqlanish характери ularning ichak kasalliklarning tarqalishiga sababchi bo'lishi mumkin. Lichinkalari fakultativ to'qimali miazalarning paydo bo'lishiga ishrok etadi.



3.10-rasm. Ko'k rangli go'sht pashshasi – *Calliphora vicina*

7) Yashil rangli go'sht pashshasi – *Lucillia sericata*. Yam-yashil va metall kabi yaltiraydi. Tanasining uzunligi 5-10 mm. Hayot tarzi ko'k rangli go'shta pashshasinikiga juda ham o'xshaydi. Bu turdagi pashshalar asosan bozor va boshqa ochiq oziq-ovqat mahsulotlarni sotadigan joylarda hamda kushxonalarda uchraydi. Urg'ochisi 200-300 tadan bir necha avlot tuxum ko'yadi. G'umbak oldi bosqichida qishlaydi. Poliomiyelet kasalligini tarqalishiga ishtirok etishi mumkin. Fakultativ to'qimaviy miazalarning qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. Hamma yerda tarqalgan.



3.8-Yashil rangli go'sht pashshasining lichinkalari



3.9-rasm. Yashil rangli go'sht pashshasi – *Lucilia sericata*.

3.2.3. Kulrang go'sht pashshalar – *Sarcophagidae* oilasi

8) *Kulrang go'sht pashshasi* – *Bercaea haemorrhoidatis*. Yirik oila, tanasining uzunligi 8-15 mm ga teng. Och kulrang tusda. Qornining uchi qizil rangda. Go'sht va mevalar shirasi bilan oziqlanadi. Urg'ochilari tuxum qo'ymaydi.

Har xil go'ngga 3-6 marta 16 tadan 94 tagacha tirik lichinka tashlaydi. Bu oila har xil kasalliklar qo'zg'atuvchilarini tarqatadi. Hamma joyda tarqalgan.



3.10-rasm. Kulrang go'sht pashshasi – *Bercaea haemorrhoidalis*

3.3. Sinantrop pashshalarning ekologiyasi

Sinantrop pashshalardan ayrim turlari, masalar uy pashshasi (*Musca domestica*), inson hayoti bilan bog'liq. Imago davrida ular insonlarga xujum qilishi mumkin, odamlarni ovqatidan oziqlanadi. Lichinkalari esa odamlar axlotlari yoki chirindi moddalarda rivojlanadilar. Bu turdagi pashshalar, boshqa hayvonlar xam yashamaydigan joylarda tarqalgan. Boshqa turlari inson bilan uy hayvonlar orqali bog'langan va uy mollari boqadigan joylarda yashaydi, chunki ular asosan hayvonlardan oziqlanadi, odamlarga esa xujum qilmaydi, go'ngda rivojlanadi. Bularga misol bo'ladi qonsuruvchi vizildoq – *Stomoxys calcitrans*.

Sinantrop pashshalarning xilma-xil turlari turli xil endofillik darajasiga egalik qiladi. Endofillar imaginal hayotining asosiy qismini uyni ichida utkazadilar. Yarimendofillar binolar ichida ko'p bo'lsa ham, lekin ochiq havoda uchadiganlar soni yuqoriroq. Fakultativ endofillar uy ichiga kam uchib kiradi,

faqatgina ularni kuchli xidlar binoga kirishga majbur qilishi mumkin. Ekzofil pashshalar esa hayotini faqat ochiq havoda utkazadilar.

Pashshalarning imaginal va lichinkalik davrlaridagi oziqlanish xarakteri bo'yicha qo'yidagi guruhlariga bo'linadi.

3.3.1-Jadval

Pashshalarning imaginal va lichinkalik davridagi oziqlanish xarakteri

Imago davridagi oziqlanishi	Lichinkalik oziqlanish
Afaglar	Parazitizm
Nektarofaglar	Parazitizm
Koprofaglar	Koprofagiya va yirtqichlar
Gematofaglar	Kaprofagiya, saprofagiya
Nekrofaglar	Nekrofagiya, parazitizm
Polifaglar	polifagiya

Afaglar imaginal davrida oziqlanmaydi, lekin lichinkalik davrida faqatgina hayvonlarning paraziti sifatida rivojlanadi. Bu guruhga so'nalar kiradi.

Nektarofaglar imago davrida o'simlik shiralari bilan oziqlanadi, ba'zan – hayvonlarning tezagini yalashi mumkin. Lichinkalari – hayvonlarda parazitlik qiladi, ba'zan – odamlarda. Bu guruhga volfart pashshasi misol bo'ladi.

Koprofag pashshalar imaginal davrida hayvonlar va odamning najasi bilan oziqlanadilar, lekin shu bilan birga odamlar ozuqasiga ham xujum qiladilar (uy pashshasi). Shu orqali ham turli xil infeksiyon kasalliklarni tarqatishiga sababchi bo'ladilar.

Gematofag pashshalar imago bosqichida hayvonlarning ochiq yaralar va yaling'lanishlarni yalab oziqlanadilar. Ichak va ko'z infeksiyon kasalliklarni tarqalishiga ahamiyati bor (bozor pashshasi).

Nekrofaglar asosan o'lgan hayvonlar, go'sht chiqindilari hamda o'txo'r hayvonlarning go'nlar bilan oziqlanadilar.

Polifag turli xil moddalar bilan oziqlanadilar: hayvonl va inson go'ngi, inson ozuqalari va ozuqa chiqindilari, hamda odamlarga xujum qilib, yaralarni yalab oziqlanishi mumkin [8].

Harorat ta'siriga qarab pashshalarni sovuqsevar va issiqsevar turlarni ajratish mumkin. Birinchilarning ko'p sonida ko'payishi bahor oylarida (kichi kuy pashshasi, uy pashshasi va boshqalar) kuzatish mumkin bo'lsa, yozning issiq oylarida esa ular soni ancha kamayadi va ayrim turlarning soni ikkinchi marotaba ko'zda kuzatiladi. Yuqori harorat davrida sovuqsevar turlarning urg'ochilarida oositlarni rivojlanishi susayib boradi. Iliq kunlarda ular ertalab va kechqurun faollashadi, kunni issiq vaqlarida esa qorong'u joylarda yashirinadi.

Issiqsevar pashshalarning ko'payishni maksimal bo'lishi yoz oylarida kuzatiladi, kunning issiq (xar bir tur uchun aniq chegaralargan) harorati ko'tarilishi bilan ular maksimal aktiv bo'ladi. Lekin jazirama va quruq iqlim sharoitida, namlik darajasi pasayishi bilan issiqsevar turlarni soni kamayadi.

Yilning sovuq oylarida pashshalarning ayrim turlari lichinkalari (yashil rang go'sht pashshasi), g'umbaklari (kulrang gusht pashshasi) va imago holatlarida diapauzada utkazadi. Boshqa turlari, masalan, uy pashshasi ob-havo pasayishi bilan faolligi susayib ketadi va diapauzaga tushmaydi [8, 13, 16].

Tarqalishi. Bizning kuzatishlarimiz bo'yicha Samarqand viloyati xududida odamlar uylarida doimo 16 tur pashshalarni tarqalishi aniqlangan. Yopiq joylarda pashshalarning turlar tarkibi uy-joylarning joylashishi va turiga qarab o'zgaradi. Samarqand shahar markaziy kuchalardagi ko'p qavatli uylarida asosan uy pashshasi – *Musca domestica* L. (umumiy individlar sonidan 80 %). Shaharning chet joylarida joylashgan xususiy uylarida turlar soni ko'payadi, uy pashshasiga yana kichi kuy pashshasi – *Fannia canicularis* L., ko'k rangli go'sht pashshasi — *Calliphora vicina* R.-D., xonadon pashshasi — *Muscina stabulans* Flin. va kuzgi vizildoq — *Stomoxys calcitrans* L. qo'shiladi.

Qishloq joylardagi uylarga ushbu turlarga yana yashil rangli go'sht pashshasi – *Lucilia sericata* Mg ham uchib kirishi aniqlangan.

**Samarqand shahar xududida sinantrop pashshalarning uy-joylarda
tarqalish darajasi**

Turlar	Xona markazi	Oshxona	Hovli	Kanalizasiya- langan xojatxonalar	Kanalizasiyasiz xojatxonalar	Yerda bo'lg'a ahlatlar
Uy pashshasi – Musca domestica L	+++	+++	-	+++	++	-
Xonadon pashshasi — Muscina stabulans	++	+	++	-	+++	+++
Yashil rangli go'sht pashshasi – Lucilia sericata Mg	-	+	++	-	++	+++
Kuzgi vizildoq — Stomoxys calcitrans L.	+	-	+	++	+++	-

Izoh: +++ - kuzatish davrida 50-100 ekzemplyar, ++ - 20-50 tagacha ekzemplyar,
+ - 20 martadan kam va – umuman uchramagan.

3.4. Sinantrop pashsharning tibbiyotdagi ahamiyati

Sinantrop pashshalarning ko'pgina turalari inson salomatligiga kata zarar yetkazadi. Qon so'ruvchi pashshalar odamlarni qonini bilan oziqlanishi uchun xujum qiladi, boshqalar – yaralar ajralgan suyuqligi, ter va shilimshiq pardasi bilan oziqlanadi. Pashshalarning insonlarga ommaviy xujum qilganda, ayniqsa yosh bolalarga, juda xalaqit beradilar. Yuqumli kasalliklarning tarqalishiga vositachi sifatida ishtirok etishlari mumkin. Ayrim tur pashshalarning lichinkalari inson tanasida parazitlik qilib, miazalarni hosil bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Pashshalar mexanik yo'l bilan yuqumli kasalliklarning qo'zg'atuvchilarni tarqatishi mumkin, lekin epidimiologik omil sifatida ichak va ko'z kasalliklarni tarqalishiga ahamiyati ham bor. Bemor odamlarning najasidan pashshalar tanasiga yopishib qolgan dizenteriya, tif, ichak kabi kasalliklarning qo'zg'atuvchilari, birxo'jayralilar sistalarini, hamda parazit chuvalchaglarning tuxumlarini olib tarqatadi. Tana sirtida yopishgan bu kasalliklarning qo'zg'atuvchilari bir necha kun tiriklik xususiyatlarini saqlayoladilar. Ayrim adabiyotlarda pashshalarning sil kasalligini tarqatishida ahamiyati bor deb hisoblaydi, shunki ular so'laklarda va bemor odamning najasida ham sil kasalligini mikobakteriyalarii uzoq vaqt tirik qoladi. Ko'z kasalliklari – yuqumli kon'yuktivit va traxoma – tarqatishiga ham sinantrop pashshalarning ahamiyati bor, negaki ular odamning kasallangan ko'zidan ajralgan suyuqlikni sog'lom odamning ko'zlariga ko'nish vaqtida yuqtirishi mumkin.

Qo'zg'atuvchilarning tarqalishiga asosan pashshalar uchun ochiq turgan oziq-ovqatlar, idish-tovoqlar va hoqazolar sababchi bo'ladi. Infeksiyalarning tarqalishiga odamlarning turmush tarziga ham bog'liq.

Odam organizmida pashshalar to'qimali va bo'shliqli miazalarni yuzaga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin. Ayrim turdagi pashshalar tasodufiy ichakli yoki siydik yo'llaridagi miazalarni qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. Odam ovqatiga pashsha tuxum quyadi, keyin o' ovqat bilan birga pashsha tuxumi va lichinkasini

yutadi, lichinkalari ichakda bir necha kun qoladi, keyin esa najas bilan organizmdan chiqadi. Ayrim turdagi urg'ochi pashshalar tuxumlarini odamning ochiq yaralariga quyadi va usha yerda fakultativ miazalar yuzaga keladi va xo'jayin to'qimasiga katta zarar yetkazadi.

3.5. Sinantrop pashshalarga qarshi kurash choralari

Sinantrop pashshalarga qarshi kurash tadbirlari infeksiyon kasalliklarni profilaktika kompleksiga kiradi. Pashshalarga qarshi kurash choralari aholi punktlarida yil davomida va mavsumning xususiyatidan kelib chiqqan holda olib borilishi zarur.

Pashshalarga qarshi kurash chora tadbirlarni ishlab chiqishda ularning biologiyasi va ekologiyasini hisobga olish kerak.

Sinantrop pashshalarga qarshi kurashda asosiy chora bu chiqindilarni to'g'ri to'plash, o'z vaqtida chiqarish va zararsizlantirish. Pashshalarning ko'payib ketishni oldini olish uchun uylarda va xar bir xonadonda xar kuni chiqindilarni maxsus joylarga chiqarib tashlash. Chiqindilar uchun muljallangan qutillar yoki boshqa idishlarni xar kuni yuvib, tozalash zarur.

Pashshalar odamning bir qancha kasallik qo'zg'atuvchilarining mexanik tarqatuvchilari bo'lib xizmat qiladi. Ular ayniqsa, oshqozon-ichak kasalliklaridan ichterlama va ichburug', kuydirgi, difteriya, sil, vabo kabi yuqumli kasalliklari qo'zg'atuvchilarini, gelmintlarning tuxumlarini, parazit birhujuyralilarning sistalarini tanasiga yopishtirib, tashib yuradi va ushbu qo'zg'atuvchilar bilan oziq - ovqat mahsulotlari hamda ichimlik suvini ifloslantiradi.

Aholi yashaydigan joylarda, binolarning ichi va tashqi atrofida sanitariya tadbirlari o'tkazilib, toza saqlanishi, atrofni odam najasi bilan ifloslantirmaslik, hojatxonalar dorilab turilishi va boshqa tadbirlar o'tkazilib turiladi.

3.5.1-jadval

Keng tarqalgan sinantrop pashshalarni xarakteristikasi

№	turlar	Tarqalishi	Pashshalar rivojlangan substrat	Qanotli pashshalarning konsentrasiya joyi	Ko'payish davri, sonini maksimal muddati	Qishlash bosqichi	Mexanik tarza tarqalgan infeksiyon va invazion kasalliklar
1.	Uy pashshasi – Musca domestica I	Xamma joylarda	Ozuqa chiqindilar, go'ng	Uylar, oshxonalar, kasalxonalar, molxonalar	Yil davomida, iyun-avgust	Lichinka, g'umbak va imago	Yuqumli ichak kasalliklari, sil, gelmint tuxumlari, birxo'jayralilar sistalari i boshqa.
2.	Xonadon pashshasi - Muscina stabulans Flin.	Xamma joylarda	Chiriyotgan o'simlik qoldiqlari, ozuqa chiqindilari, odam najasi	Xojatxonalar, molxona, turar joylari	Yil davomida, bahor, kuz	Turli fazalar	Ichak infeksiyalari, lichinkalari odam va hayvon tanasidagi yaralarida parazitlik qilishi mumkin
3.	Kichik uy pashshasi - Fania canicularis L.	Xamma joylarda	Axlat o'radagi suyuqliklar, yarim suyuq go'ng, xo'l chiqindilar	Molxona, xojatxona, uylar	Yil davomida, bahor, kuz	Turli fazalar	Yuqumli ichak infeksiyalari, ovqat bilan tasodifan yutkanda ichak miazalarni bo'lishi mumkin
4.	Bozor pashshasi	O'rta Osiyo,	Odam najasi,	Ozuqa sotadigan	Iyul-avgust	G'umbak	Ko'z va ichak

	- Musca sorbens Wd.	Kazog'iston, Kavkaz	cho'chqa ahlatlari, ayrim faqtda - go'ngda	ochiq joylari, yerda bo'lgan najaslar			infeksiyalari
5.	Ko'k rangli go'sht pashshasi - Calliphora vicina	Xamma joylarda	Sut emizuvchilar o'liklari, go'sht chiqindilari	Bozor, go'shtxona	Bahor, kuz	Lichinka, g'umbak, imago	Ichak infeksiyalari va invaziyalari, lichinkalari to'qima va ichak miazalarga olib kelishi mumkin
6.	Yashil rangli go'sht pashshasi - Lucilia sericata Mg.	Issiq iqlimli mamlakatlar	Hayvonlar jasad, go'sht chiqindilari, hom va tuzlangan baliq	Ozuqa sotadigan ochiq joylari, xojatxona	Yilning issiq davrida, iyul-avgust	G'umbakoldi	Ichak infeksiyalari va invaziyalari
7.	Kulrang go'sht pashshasi - Beracea haemorrhoidalis Flin.	Xamma joylarda, ayniqsa janubda	Yerdagi va xojatxonadagi najaslar	Xojatxona, bozor, ayrim vaqtda - uylar	Iyun-sentyabr	G'umbak	Ichak infeksiyalari va invaziyalari, lichinkalari to'qima va ichak miazalarga olib kelishi mumkin
8.	Vizildoq - Stomoxys calcitrans L.	Xamma joylarda	Gung, chiriyotgan o'simlik chiqindilari, suvo'tlar, hayvonlar tagidagi tushamalar	Molxona, otxona, uylar, ayrim vaqtda - yaylovlar	Yilning issiq davrida, kuzda	Turli bosqichlar	Zooantroponozlar

Sinantrop pashshalarga qarshi kurashda qo'yidagi chora-tadbirlarni o'tkazish zarur:

- 1) aholi yashaydiga xududlarni sanitariya-gigiyena qoidalarga rioya qilish va chiqindilar hamda najas bilan ifloslangan joylarni tozalash;
- 2) pashshalarning lichinkalari va g'umbaklar rivojlanadigan joylarni yo'q qilish;
- 3) uy-joylarni pashshalarning uchib kirishidan himoya qilish;
- 4) qanotlangan pashshalarning yo'q qilish.

Pashshalarning qattiq va suyuq chiqindilarda ko'payishini yo'lga qo'yilmaslik uchun qo'llaniladigan choralar eng samarali hisoblanadi. Bu choralarni qo'llashda aholi yashaydigan joylarda uchib yuruvchi pashshalarning sonini minimumgacha olib kelishi mumkin. Agar kurash choralari faqatgina uchib yuruvchi pashshalarga qaratilsa bu yaxshi natijalarga olib kelmaydi.

Uy-joylarni pashshalardan himoya qilish maqsadida deraza va eshik (agar uni ochib ko'yilsa) katakchalari 2 x 1,5 mm dan katta bo'lmagan temirli yoki sintetik to'r, doka yoki qog'oz bilan yopish zarur.

Organik chirindi joylarida pashshalarni lichinkalari va g'umbaklarini yo'q qilishda larvisidlardan foydalanadilar. Xojatxona xandaklarini, suyuq chiqindi idishlari, chiqindi hamda chiqindi osti yerlarni larvisidlar bilan may oyidan boshlab, janubiy tumandalarda – aprel oyida tozalanadi. Suyuq chiqindilarda pashshalar lichinkalarini qirib tashlash uchun turli xil insektisidli emulsiya va eritmalar yordamida oson erishadi. Chunki chiqindilar yuzasida paydo bo'lgan parda, substrat yuziga chiqayotgan lichinkalarni insektisidlar bilan kontaklashadi, insektisidlar esa lichinkani nafas olish teshigiga kirib, ularni o'lishiga sababchi bo'ladi.

Qanotli pashshalarga qarshi kurashda turli xil shisha idishlari, polimer va to'rli pashshatutgichlar (muxolovka), o'pishqoq qog'oz va hoqazolar mexanik vositalarni ishlatish mumkin. Xonalarda pashshalarni to'tish uchun shishali yoki polimerli, ochiq joylarida esa – to'rli pashshatutgichlardan foydalaniladi.

Pashshalarga turli xil qarshi kurash chora tadbirlar kompleksida cherdaklarda, yer to'ralarda, oziq-ovqat va bolalar muassasalarida, shifoxonalarda, chorva xo'jaliklarida, issiqxonalarda qishlayotgan pashshalar joylarini aniqlash. Qish va erta bahor mavsumlarida uchib yurgan yoki anabioz bosqichidagi pashshalarni mexanik yo'l bilan yo'qotish kerak.

Shuni unutmaslik kerakki har qanday effektiv va qimmatbaho vositalarni ishlatishi faqatgina aholi yashaydiga joylarning talab etilgan sanitariya qoidalariga rioya qilganda o'z samarasini ko'rsatadi.

Xulosalar

1. O'zbekistonda turli xil ekologik sharoitlarida 13 oila, 44 avlodlariga mansub 83 turlari tarqalgan.

2. Sinantrop pashshalar faunasini tashkil etadigan asosiy turlari Muscidae, Calliphoridae i Sarcophagidae oilalariga mansub bo'lib, o'rganilgan guruh hayvonlarning umumiy turlar tarkibini 64% ni tashkil etadi. Musca L., Hydrotaea R.-D., Muscina R.-D., Lucilia R.-D., Fannia R.-D. i Sepsis Flln. avlodlari dominant hisoblanadi.

3. Odamlar va hayvonlar uchun zararli bo'lgan, uy pashshasi Musca domestica - 50,3%; xona pashshasi – Muscina stabulans 6,4; kichik uy pashshasi - Fannia scalaris 2,7; Musca autumnalis 2,06; Lucilia illustris 1,48; Musca amita 1,2; Musca tempestiva 1,19; Musca larvipara 1,16; Musca vitipennes 1,09; Calliphora vicina 0,99; Liperosia exigna 0,85% tashkil etadi.

4. Bir mavsumda uy-joylarga 750-850 ekzemplardan 15000 tagacha pashshalari soni uchib kirishi aniqlangan.

5. Uy-joylarning xamma sharoitlarida inson bilan birga yashab kelgan 4 tur pashshalar: Drosophila fasciata Mg., Fannia canicularis L., Musca domestica domestica L., Calliphora vicina R.-D.

6. Pashsharning sutkalik yuqori aktivligi 11 soatdan 19 soatgacha kuzatilgan. O'rganilgan xududda pashshalarning faol hayot faoliyati 6-7 oyni tashkil etadi.

Tavsiyalar

- 1) Pashshalarga qarshi kurash chora tadbirlarni ishlab chiqishda ularning biologiyasi va ekologiyasini hisobga olish zarur.
- 2) Aholi yashaydigan xududlarni sanitariya-gigiyena qoidalarga rioya qilish va chiqindilar hamda najas bilan ifloslangan joylarni tozalash.
- 3) Pashshalarning lichinkalari va g'umbaklar rivojlanadigan joylarni yo'q qilish.
- 4) Uy-joylarni pashshalarning uchib kirishidan himoya qilish.
- 5) Malakaviy bitiruv ishi materiallaridan umumta'lim maktablarida zoologiya darslarida «Foydali va zararli pashshalar» nomli mavzularda foydalanish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Алахвердян С.А. Исследование саркофагид на наличие яиц гельминтов // Мед. паразитология и паразитарн. болезни. 1961. - Т. 30, №3. - С. 360 - 361.
2. Алимджанов Р.А., Бронштейн Ц.Г. Беспозвоночные животные Зарафшанской долины. Тошкент изд – во АН Уз ССР, 1950г.
3. Бей-Биенко Г.Я. Общая энтомология. -М.: Высшая школа, 1980. 416с.
4. Весёлкин Г.А. Борьба с мухами в животноводстве. М.: Колос, 1966.
5. Весёлкин Г.А. Дифференциация синантропных и синбовинных мух по особенностям зимовки имаго //Экологические и морфологические основы систематики двукрылых насекомых. JL: Наука, 1979. с.6-8.
6. Весёлкин Г.А. Особенности экологической структурированности популяций зоофильных мух. //Экол. и охрана окруж. среды, 1995, с.7-8.
7. Весёлкин Г.А., Сергеева Г.К. Меры борьбы с зоофильными мухами на звероводческих фермах. //Ветеринария, 1988, №6, с.23-25.
8. Дербенева-Ухова В.П. Мухи и их эпидемиологическое значение. М., 1952.
9. Дербенева-Ухова В.П. Руководство по медицинской энтомологии. М., Медицина, 1974. – с.176-204.
10. Домацкий А.Н., Нажмиддинова З.Н. К изучению фауны и экологии зоофильных мух в промышленном птицеводстве. Сб. науч. тр. N 36, 1994, с.44-47.
11. Дрёмова В.П. Городская энтомология: вредные членистоногие в городской среде. Екатеринбург, ИздатНаукСервис, 2005. 278с.
12. Евтодинко В.Г. К вопросу о выживаемости дизентерийных микробов на поверхности тела и в кишечнике мух / В.Г. Евтодинко // Кишечные инфекции: Респ. межвед. сб. Киев, 1968. - Вып. 2. -С. 80-81.

13. Князева Н.В. Синяя мясная муха (*Calliphora erythrocephala*) - опасный паразит тропических стран //Актуальные вопросы инфекционной ветеринарии, медицины и биотехнологии. - М., 1995.-С. 57.
14. Крашкевич К.В., Тарасов В.В. «Медицинская паразитология» Москва, Изд. МГУ, 1969.
15. Кулмаматов А. «Умуртқасиз паразит ҳайвонлар». Тошкент, «Ўқитувчи» нашр., 1988.
16. Курючкин В.А. Двукрылые насекомые и их значение в сельском хозяйстве. Л, 1987. - С. 60 - 62.
17. Лярский П.П., Дремова В.П. и Брикман Л.И. Медицинская дезинсекция, с. 120, М., 1985; Росс Г., Росс Ч. и Росс Д. Энтомология, пер. с англ., с. 378. М., 1985.
18. Нарчук Э.П. Анализ мирового распространения семейств двукрылых (Diptera). //Энтомологическое обозрение, LXXI, №2, 1992. с.464-477.
19. Непоклонов А.А. Защита животных от мух. //Ветеринария, 1988, №6. с.11-12.
20. Павловский Е.Н. Руководство по паразитологии человека, т. 1—2, М. — Л., 1946—1948.
21. Расулов Б.Р. Зоофильные мухи свиноводческих ферм и комплексов Таджикистана и разработка мер борьбы с ними. Автореф. дисс. канд. вет. наук, Ставрополь, 1990. - 20 с.
22. Сухова М.Н. К вопросу об эпидемиологическом значении копробионтных экзофильных видов синантропных мух. //Зоол. журн. 1951, т.33, №2. с.188-190.
23. Сычевская В.П. Итоги работы по изучению синантропных мух и меры борьбы с ними в Узбекистане. //Актуальные проблемы медицинской паразитологии. Вып.1. 1973. с.214-218.
24. Сычевская В.П., Петрова Т.А. О роли мух в распространении яиц гельминтов в Узбекистане. //Зоол. журн., 1958, №4. с. 563-569.

25. Фасулати К.К. Полевое изучение наземных беспозвоночных. М.: Высшая школа, 1971. – 424 с.
26. Штакельберг А.А. Синантропные двукрылые фауны СССР. М.: Изд-во АН СССР, 1956. – 164 с.
27. Dadayev S. Parazitologiya «O'qituvchi» nashr., Toshkent, 2006.
28. <http://enc.sci-lib.com>
29. www.org.wikipedia.ru/ синантропные мухи